XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 14 - aprel VI-50-67-10-0-K/22 Toshkent viloyati hokimiligi

“Musaffo obi-hayot” MChJning maxsus suv tashuvchi avtoulov orqali yetkazib beriladigan ichimlik suv tariflari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli Farmoniga asosan viloyatda ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-sonli Farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Musaffo obi hayot” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan maxsus suv tashuvchi avtoulov orqali yetkazib beriladigan ichimlik suv tariflari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasining 2021-yil 27-oktabrdagi T-11-01/03-6717-son hamda viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 28-oktabrdagi 02-20/27-05-38/4275-son xatlari inobatga olinganligi

ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Eraliyeva), “Musaffo obi hayot” MChJ tomonidan maxsus suv tashuvchi avtoulov orqali yetkazib beriladigan ichimlik suv tariflari 2022-yil 1-apreldan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi tavsiya etilsin.

4. “Musaffo obi hayot” MChJ belgilangan narxlarni asossiz oshirib yuborilmaslik uchun shaxsan mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov va viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Meliyev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi o'rinbosari **Turdiboyeva R. E.**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2022 yil 14 apreldagi
VI-50-67-10-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Musaffo obi hayot” MChJ tomonidan maxsus avtoulovlar orqali ichimlik suvini yetkazib berish narxi (tariflar)

T/p	Xizmat turi	1 m3 suvni 1 km masofaga yetkazish uchun transport xarajati (so‘m)	1 m3 suv narxi (tarif) (so‘m)	Maxsus ustama (so‘m)	Jami 1 m3 (1000 litr) ichimlik suvini yetkazib berish narxi
1.	Iste’molchi uchun	541,7	565	50	1156,7